

TARJIMADA BADIY TASVIR VOSITALARINI QAYTA YARATISH MUAMMOLARI

Radjapova Intizor Egamberganovna,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Urganch, O'zbekiston

E-mail: radjapovaintizor70389@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda badiiy matn tarjimasida badiiy tasvir vositalarini adekvat tarzda qayta yaratish bilan bog'liq muammolar lingvopoetik va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan yoritiladi. Asosiy e'tibor metafora, epitet, tashbeh, ironiya, kinoya kabi stilistik birliklarning semantik va estetik xususiyatlarini boshqa tilda ifodalashdagi qiyinchiliklarga qaratilgan.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, metofora, epitet, ironiya, stilistik birlik, tashbeh, kinoya.

Badiiy tarjima — bu nafaqat tilni o'zaro almashtirish, balki muallif uslubini, estetik ifoda vositalarini, badiiy obrazlarni va matnning umumiy poetikasini boshqa tilga ko'chirish jarayonidir. Ayniqsa, badiiy tasvir vositalarini tarjima qilishda tarjimon ko'p hollarda murakkab stilistik va semantik muammolarga duch keladi. Chunki har bir til o'zining milliy-madaniy konteksti, estetik mezonlari va stilistik imkoniyatlariga ega.

Tarjimada badiiy tasvir vositalarini qayta yaratishning asosiy muammolari asosan quyidagicha talqin etiladi:

Metaforalarning adekvat ekvivalentini topish: Metafora – bu muayyan xalqning mentaliteti, madaniy konnotatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan obrazli vosita bo'lib, uni boshqa tilda to'liq adekvat tarzda ifodalash har doim ham imkoni bo'lmaydi. Masalan, “ko'ngli ko'kardi” iborasi o'zbek tilida hissiy holatni obrazli ifodalasa, uni ingliz tiliga “became sad” shaklida tarjima qilish semantikani bersada, poetikligini yo'qotadi.

Epitet va tashbehlarining poetik og'ishini saqlab qolish: Ko'pgina badiiy epitetlar o'zbek tilida fonetik uyg'unlik, alliteratsiya va madaniy konnotatsiyalar bilan boyitilgan. Tarjimada ularning ohangdorligi yo'qolib, oddiy tavsifiy birlikka aylanib qolish xavfi mavjud.

Ironiya va kinoya vositalarining madaniy tafovutlari: Ironiya va kinoya asosan kontekst asosida tushuniladi. Ular tarjimada bevosita semantik tarjima qilinsa, asl nutqning yumoristik yoki istehzoli tusini yo'qotadi. Shu bois tarjimon ko'pincha mazkur vositalarni kontekstual tarzda o'zgartirishga yoki funksional ekvivalentlar topishga majbur bo'ladi.

Stilistik neologizmlar va dialektal birliklar: Muallif tomonidan ixtiro qilingan yangi so'zlar yoki maxsus dialektal ifodalar tarjimada qiyinchilik tug'diradi. Tarjimon bu holatda neologizmlarning semantik yuki va poetik ohangini hisobga olib, muqobil variantlar ishlab chiqishi zarur bo'ladi.

Pragmatik va poetik ekvivalentlik muammosi: Tarjimon asarning faqat mazmuniy emas, balki estetik ta'sirini ham boshqa tilda yaratishga intiladi. Bu esa tarjimaga ijodiy yondashuvni talab etadi.

Bu qarashlarning shakllanishida ko'plab olimlarning olib borgan tajribalari va yaratgan nazariyalari asos bo'lgan. Shulardan biri Jon Kunison Ketford[1] u o'zining "A Linguistic Theory of Translation" asarida tarjimani lingvistik nuqtai nazardan tahlil qiladi va uning nazariyasini tizimli lingvistika asosida shakllantiradi. Ketfordning yondashuvi tizimli lingvistikaga asoslanganligi sababli, u badiiy tarjimadagi ijodiy jihatlarni to'liq qamrab olmaydi. Shuni inobatga olgan holda, Yujin Nayda[2] va Syuzen Basnet[3] uning nazariyasini madaniy va pragmatik omillarni hisobga olgan holda takomillashtirdilar. Ammo, Ketfordning "lingvistik tenglik" tushunchasi zamonaviy tarjimashunoslikda muhim ishchi model bo'lib qolmoqda. Quydagi jadvalda olimlar fikrlari va qarashlari orasidagi farqni yaqqol ko'rishimiz mumkin:

Nayda va Basnet nazariyasining Ketford nazariyasidan farqlari

Jihat	Ketford (1965)	Nayda (1964/1969)	Basnet (1980/2002)
Yondashuv	Lingvistik	Madaniy-pragmatik	Madaniyatlararo
Tenglik	Formal/tekstual	Dinamik tenglik	Madaniy moslik
Asosiy E'tibor	Grammatik tuzilmalar	Xabarning samaradorligi	Madaniy kontekst

Keyinchalik Laurens Venuti [4]–Tarjimada "begonalashtirish" va "yaqinlashtirish" usullarini taqqoslab, badiiy tasvirni saqlash uchun uslubiy tanlovlarni muhokama qilgan. Tarjimada badiiy tasvir vositalarini qayta yaratish muommosi diorasi nafaqat xorij olimlari tadqiqot olib borganlar qolaversa o'zbek olimlari ham o'z qarashlari bilan nazariya shakllanishiga o'z hissasini qo'shganlar shulardan, Matyoqub Qo'shjonov [5] u quyidagi nazariyani ilgari surgan, Badiiy matnlar tarjimasida uslubni saqlash bunda asarda she'riy va nasriy asarlarni tarjima qilishda original matnning badiiy jihatlari (obrazlar, metaforalar, uslub) qanday saqlanishini, madaniyatlararo uzatish muammolarini, bunda o'zbek va jahon adabiyotlaridagi madaniy realiyalar (mas., "choyxona", "navro'z")ni boshqa tillarga tarjima qilish usullarini va tarjimon mahorati: Yaxshi tarjimon ikkala til va madaniyatni ham chuqur bilishi, shuningdek, ijodiy yondashuvga ega bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlaydi. Naydaning dinamik tenglik nazariyasi, Ketfordning lingvistik tarjima modeli, Basnetning madaniy tarjimashunoslik konsepsiyasi nazariyasiga tayangan holda o'zining nazariyasini yaratgan yana bir o'zbek olimi bu Shuhrat Sirojiddinovdir. [6] Sirojiddinov o'zbek va ingliz tillaridagi badiiy obrazlarning tarjimaviy ekvivalentligi masalasini chuqur o'rganadi, asosan: Lingvomadaniy muammolar tahlil qiladi va til va madaniyatning uzviy bog'liqligini (lingvistik tizim + madaniy kodlar) o'rgangan. Shu bilan birga Tarjimadagi yo'qotishlar turlarini ham alohida sanab o'tadi:

- o Semantik yo'qotishlar (so'zning to'liq ma'nosini uzata olmaslik)

- o Pragmatik yo'qotishlar (madaniy kontekstni yetkazish qiyinligi)
- o Estetik yo'qotishlar (badiiy uslub va obrazlarning buzilishi)

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar bizni quyidagicha xulosaga kelishimizga olib keladi. Tarjimada badiiy tasvir vositalarini qayta yaratish murakkab va ko'p qirrali lingvopoetik jarayon hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat tarjimonning til bilimi, balki uning til sezgisi, madaniy tafakkuri, poetik didi va ijodiy yondashuvini ham talab qiladi. Badiiy asarda qo'llanilgan har bir stilistik birlik, ya'ni metafora, epitet, ta'kid, kinoya, qiyos kabi tasviriy vositalar boshqa tilga tarjima qilinayotganda o'zining semantik (ma'no jihatidan) mazmunini saqlab qolishi bilan birga, funksional (asardagi vazifasi) va estetik (go'zallik, ta'sirchanlik) xususiyatlarini ham yo'qotmasligi zarur. Tarjimon faqatgina lug'aviy darajadagi muvofiqlikni emas, balki asl matnda mavjud bo'lgan estetik tuyg'uni, uslubiy rang-baranglikni ham iloji boricha qayta yaratishga harakat qilishi kerak. Bunday yondashuv esa tarjimonda chuqur lingvopoetik kompetensiyani — ya'ni tildagi poetik vositalarni tushunish, ulardan samarali foydalanish va ularni boshqa til vositalari yordamida to'laqonli ifodalash qobiliyatini talab qiladi. Lingvopoetik kompetensiya tarjimonni oddiy til vositachisidan yuqori darajadagi ijodkorga aylantiradi. Shunday qilib, badiiy tarjima bu — ijodiy jarayon bo'lib, unda tarjimon muallif ijodini o'z tafakkuri va estetik qarashlari orqali talqin qiladi. Tarjimada badiiy tasvir vositalarining adekvat va o'rinli tarzda aks ettirilishi esa asarning umumiy badiiy qiymatini, uning ta'sirchanligini saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Demak, badiiy tarjimada lingvopoetik kompetensiya asosiy va ajralmas omil bo'lib, bu kompetensiyasiz sifatli va ilhomli tarjimani tasavvur qilish qiyin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Catford J.C. (1965). *A Linguistic Theory of Translation*. London: Oxford University Press.
2. Nida E. (1969). *The Theory and Practice of Translation*. Leiden: Brill.
3. Bassnett S. (1980-2002). *Translation Studies* (3rd ed.). London: Routledge.
4. Venuti L. (1995). *The Translator's Invisibility: A History of Translation*. London: Routledge.
5. Qo'shjonov M. (2005). *Tarjima san'ati*. Toshkent: Akademnashr.
6. Sirojiddinov S. (2018). *Tarjimashunoslikning dolzarb masalalari*. Toshkent: Turon zamin ziyo.